Yondosh mavzu:
ko'targichlar.

Tonna, sentner,
kilogramm, gramm, massa.

1. Predmetlarni ular massasining o'sishi tartibida ayting.

Ularning massasini o'lchashda qanday birliklardan foydalandingiz?

Massa gramm, kilogramm, sentner va tonnalarda o'lchanadi.

· 1 000   · 100   · 10

1 g   1 kg   1 q   1 t

2. Berilgan massa birliklarida ifodalang.

4 656 kg = ☐ t ☐ kg   30 583 g = ☐ kg ☐ g   720 q = ☐ t

72 t 482 kg = ☐ kg   56 q 73 kg = ☐ kg   30 000 kg = ☐ t

3. Eng kichik o'lchov birligiga o'tkazib hisoblang.

45 kg 29 g − 29 kg 342 g   (8 t 42 kg − 3 t 145 kg) · 7

5 t − 9 q 71 kg   83 t 550 kg : 3 + 23 q

4. Tenglamalarni yeching.

$x \cdot 4 = 5$ t 18 kg − 3 q 26 kg $y : 3 = 2$ t 2 q 67 kg + 123 kg

5. Qurilish krani g'isht bloklari, beton plitalar va qoplangan qumlarni ko'taradi. Kranning yuk ko'tarish quvvati – kran ko'tarishga qodir bo'lgan massa 30 t.

Jadvaldan foydalanib,

a) yukning umumiy massasini;

b) kran bu yukni ko'tarish yoki ko'tara olmasligini aniqlang.

	G'isht bloklari	Beton plitalar	Qoplangan qumlar
Miqdori	6	4	18
Bir birlikning massasi	1 110 kg	6 t 500 kg	50 kg

6. Ifodalarni taqqoslang.

(30 075 + 2 375) + 4 016 ☐ 30 075 + (2 375 + 4 019)

92 875 + 28 577 ☐ 28 574 + 92 871

(773 + 338) · 5 ☐ (773 − 338) · 5

106 · (34 · 23) ☐ (106 · 34) · 23

7. Ifodalarni hisoblang. Bu yerda qanday ko'targichlarning nomi yashiringan?

a) 567 234 : 9 + 24 · (83 668 − 82 474)

7 164	63 026	1 214	1 194	34 370	91 682	28 656
A	I	E	L	O	T	F

b) (123 − 4 · 8) · 3 : 7 + 16 + (48 − 27 − 6) · 5

15	39	130	273	55
A	A	R	L	O
21	91	75	32	48
K	S	T	E	M

8. Uyga 500 kg yuk ko'tara oladigan lift o'rnatilgan. Liftda uchta quruvchi ko'tarilmoqda. Ularning massasi 85 kg, 92 kg va 103 kg. Agar bir qop sementning massasi 20 kg bo'lsa, ular o'zlari bilan necha qop sement olishlari mumkin?

9. Sinfdoshingiz bilan musobaqalashing. Kim o'zining sehrli kvadratini tezroq to'ldirdi? Kim buni to'g'ri bajardi?

7		10	32
	8	9	32
			35
32	34	33	

21		15	49
	7		40
		20	50
43	43	53	

10. Ikkita cho'pni shunday olingki, natijada tenglik to'g'ri bo'lsin.

$$96 - 16 = 28$$

11. Ifodalar tuzing va ularning qiymatini toping.

a) 28 477 soniga 13 838 va 9 934 sonlari ayirmasini qo'shing.

b) 548 va 89 sonlari ko'paytmasidan 42 874 sonini ayiring.

d) 70 377 va 69 979 sonlari ayirmasini 18 marta orttiring.

e) 80 160 sonini 16 va 5 sonlari ko'paytmasiga bo'ling.

12. Liftning yuk ko'tarish quvvati 1 600 kg. Liftga har biri 25 kg bo'lgan 32 qop shakar va har biri 20 kg bo'lgan 48 yashik kungaboqar yog'i yuklandi. Lift me'yordan ortiq yuk ortilganligi haqida signal berdi. Liftga me'yordan qancha ko'p yuk ortilgan?